

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari227

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari231

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov

Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish235

U.X.Gulmatov

O'zbekiston milliy transport tizimining iqtisodiy asoslari.....239

FALSAFA

M.M.Abduraxmonova, D.O.Akramov

Umumta'lim maktablarida xavf guruhidagi oila farzandlarini ijtimoiylashuvida mahalla ijtimoiy xodimining ahamiyati.....246

Q.Sulaymonov

O'rta asr Islom Sharqi allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining qiyosiy induksiyasi253

X.A.Yulbarsova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....258

I.A.Asatulloev

Alfred Adlarning qalb konsepsiyasida inson kamolotining ijtimoiy omillar bilan shartlanganligi.....264

I.A.Suvanov

Axborot jamiyatida insonni kutayotgan yangi muammolar xususida ayrim mulohazalar268

M.Y.Ergashov, Z.I.Narziyev

Qomusiy alloma Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi.....273

M.K.Soipova

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda fan va islom qadriyatlarini tushunchasining mazmun mohiyati.....277

I.B.Toshpo'latov

Jamiyat taraqqiyotida filantropik harakatning ahamiyati.....281

З.С.Касимова

Цифровизация и гуманитарное образование: сотрудничество и инновации284

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev

O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda xalqaro maydondagi tashabbuslari.....290

O'.N.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ma'naviyatini yuksaltirish zarurati.....296

M.T.Musayev

Globalashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri.....300

G.S.Ro'ziyeva

Madaniyat va milliy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini belgilashning o'ziga xosligi305

TARIX

B.X.Matboboyev, A.A.Aloxunov

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Mingtepa shahar xarobasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari xususida311

J.Sultonov

Chingizxonning markazlashgan davlatga asos solishida ittifoqchilik va diplomatiyaning roli....318

X.X.Azimov

Qadimgi Xitoy manbalarida Usun davlati.....329

J.Z.Axmedov



UO'K: 17.024:23

**QOMUSIY ALLOMA ABU BAKR MUHAMMAD ZAKARIYO AR-ROZIYNING MA'NAVIY VA
ILMIY MEROSI****ДУХОВНОЕ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ КАМУСИ АЛЛАМА АБУ БАКРА МУХАММАДА
ЗАКАРИА АР-РАЗИ****SPIRITUAL AND SCIENTIFIC HERITAGE OF QAMUSI ALLAMA ABU BAKR
MUHAMMAD ZAKARIA AR-RAZI****Ergashov Mansur Yarashovich** Buxoro davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar kafedrası professori, kimyo fanlari nomzodi
<https://orcid.org/0000-0003-4123-3081>**Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich** Buxoro davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Mazkur maqolada o'rta asrlar Sharqining mashhur mutafakkiri, qomusiy allomalaridan biri bo'lgan Abu Bakr Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi tahlil qilingan.

Inson salomatligi va u bilan bog'liq fan sohasi - tabobat kishilik jamiyatining hamma davrlarida dolzarb va yuksak e'tiborga sazovor sohalardan biri bo'lib kelganligi buning natijasi o'laroq jamiyat taraqqiyotining bugungi kuniga qadar bu sohada ulkan kashfiyotlar qilinib, peshqadam muolaja vosita va usullari yaratilganligi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется духовное и научное наследие Абу Бакра Закарий ар-Рази, одного из известных мыслителей и учёных-энциклопедистов Средневековья.

Здоровье человека и связанная с ним область науки – медицина стала одной из актуальных и весьма примечательных областей во все эпохи человеческого общества. В результате этого в этой области развития общества были сделаны великие открытия.

Abstract

This article analyzes the spiritual and scientific legacy of Abu Bakr Zakariyy al-Razi, a famous thinker of the Middle Ages and one of the encyclopedic scholars.

Human health and the field of science related to it - medicine has become one of the relevant and highly noteworthy fields in all eras of human society. As a result of this, great discoveries have been made in this field of the development of society to this day, leading treatment tools and methods. creation is highlighted.

Kalit so'zlar: Abu Bakr Zakariyo ar-Roziy, "Kitob tibb ar-ruhoniyy", "Kitob-siyatal-falsafiya", "Maqola fi amoratiq bolvaad-davlati"

Ключевые слова: Абу Бакр Закария ар-Рази, «Китаб тибб ар-рухани», «Китаб-сыратал-философия», «Макола фи аморатик болваад-давлати»

Key words: Abu Bakr Zakariya ar-Razi, "Kitab tibb ar-ruhani", "Kitab-syratal-philosophia", "Maqola fi amoratiq bolvaad-davlati"шее время освещено создание передовых средств и методов лечения.

KIRISH

Abu Bakr Zakariyo ar-Roziy o'rta asrlar musulmon Sharqining eng yirik zabardast olimi va mutafakkirlaridan biri bo'lib, nafaqat Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining, balki jahon xalqlarining tabiiy-ilmii va falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Alloma milodiy 865-yilning 28-avgustida Ray shahrida (hozirgi Tehron) tug'ilgan. Abu Bakr Zakariyo ar-Roziy yoshlik chog'larida dastlab adabiyotga juda qiziqish bildirgan, she'rlar yozgan va musiqa bilan shug'ullangan. Keyinchalik, alloma falsafa, riyoziyot, astronomiya va alkimyo fanlari bilan jiddiy shug'ullangan va yoshlik chog'laridanoq, tabobat ilmini puxta egallaganligi uchun "o'z davrining Jolinusi" (Galen) sifatida, tan olingan. Allomaning bir qancha muddat, Ray va Bag'dod

shaharlaridagi kasalxonalarining mudiri bo'lib ishlaganligi manbalarda ma'lumot sifatida qayd etilgan. Uning, "Tabobat sohasida hamma narsani o'z ichiga oluvchi kitob" deb atalgan, mashhur asari o'sha davr tibbiy bilimlarining o'ziga xos doiratul-maorifi, ya'ni qomusi edi. Ar-Roziy bir necha yil Markaziy Osiyo shaharlarida yashagan va bu yerdagi ilmiy doiralar bilan yaqin ilmiy aloqada bo'lgan. Mutafakkir bu yerlarda bir qator shogirdlarni tarbiyalab yetishtirgan va bizning fikrimizcha uning ilmiy faoliyati Abu Rayhon Beruniyning qarashlari va ilmiy faoliyatiga ma'lum darajada ta'sir o'tkazgan. Jumladan, Roziyning ilmiy merosini birinchi marta o'rgangan olim Abu Rayxon Beruniydir. Beruniy 1036 yil oxirlarida Roziyning tarjimai holi, dunyoqarashi va asarlarini tadqiq etib, "Fehristi kutub Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy ("Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy kitoblarining ro'yxati) asarini yozgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bizning fikrimizga ko'ra Abu Rayhon Beruniy Roziyning tarjimai holini to'laroq tiklab, uning ijodiy merosiga qiziqish uyg'otishga uringan. Chunki ayrim musulmon mamlakatlarida Roziy ismi va asarlari taqiqlangan va o'rta asr islom tarixshunosligida asosan salbiy baholar berilgan. Masalan Nosir Xusrav, Jurjoni Roziyning falsafiy va mulxidlik qarashlarini tanqid qilganlar. Roziy haqida an-Nadim va Ibn Abi Usaybiy ham o'z ma'lumotlarini yozib qoldirganlar. Markaziy Osiyoda Beruniydan keyin yashagan yirik mutafakkirlar ijodida ham Ar-Roziyning ta'siri sezilib turadi. Alloma umrining so'nggi yillarida ko'r bo'lib qoladi. Buning sababi sifatida esa, manbalarda olimning ko'p o'qishi, kimyoviy moddalar bilan tajribalar o'tkazishi, yirik loviyani ko'p iste'mol qilishi ko'rsatilgan. Abu Bakr Zakariyo Roziy falsafa ilmini chuqur egallagan va uning falsafiy qarashlari keng qamrovga ega bo'lib, ma'naviyatning barcha sohalarini o'z ichiga olgan. Ar-Roziy bilishda aqlning ahamiyatini ko'klarga ko'tardi va unga ham, tabiatshunoslik sohalariga qaralgandek, jiddiy munosabatda bo'lishga chaqirdi. Afsuski, ar-Roziyning falsafiy asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Ammo, ar-Roziyning uchta falsafiy risolasi: "Kitob tibb ar-ruhoniyy" ("Ruhiiy shifo topish kitobi"), "Kitob-siyaratal-falsafiya" ("Falsafiy hayot tarzi haqidagi kitob") va "Maqola fi amoriyatiq bolvaad-davlati" (Baxt-saodat va boylikka erishish yo'llari haqidagi maqola) uning falsafiy qarashlarini o'rganish uchun manba vazifasini o'taydi. U tabiiy-ilmiy va falsafiy ilmlar bilan bir qatorda, teologiya masalalari bilan ham jiddiy shug'ullanib, insonning ruhiy kamolotida diniy aqidalarning o'rnini xolis baholab bergan. Abu Bakr Zakariyo Roziy kimyo fani doirasida mukammal tadqiqotlar o'tkazgan va tajribalar olib borgan. Ar-Roziy o'zining "Jolinusning qarashlariga shubhalar" risolasida yoshlik chog'larida "ajoyibotlar yaratuvchilarning" xatolarini topish maqsadida ko'p tajriba va tadqiqotlar olib borganini bayon etgan. Ehtimol, bu tadqiqotlar yosh allomaning kimyo fanini chuqur o'zlashtirishiga sabab bo'lgan. Uning modda, tabiat va jismlarning tarkibiy tuzilishidagi atomlar (bo'linmas zarralar) mavqei haqidagi fikrlari dunyoviy fanlar rivojiga o'zini salmoqli hissasini qo'shgan. Buning pirovard natijasida ar-Roziy o'zining "Sirlar kitobi", "Kimyoga kirish", "Minerallarning paydo bo'lishi", "Toshlar xaqida kitob", "Iksir xaqida kitob", "Oltin va misning soflik tamg'asi (probasi)", "Kimyoni inkor etuvchi al-Kindiyga raddiya", "Sirlarning siri kitobi" asarlarini yaratdiki, ular o'rta asr kimyo fanining noyob durdonalariga aylandi. Ibn al-Qiftiy va Abu Rayxon al-Beruniylarning ko'rsatishicha, ar-Roziyning kimyoviy tajribalarga juda berilib ketgani va doimiy tutun, bug', o'tkir hid va olovning ta'sirida bo'lishi oqibatida ko'zining shikastlanishiga olib keladi. Shifo istab ko'z tabibi (kaxxal)ga murojaat etgan ar-Roziydan davo uchun tabib besh yuz dinor talab qilinganidan g'azablangan olim tabobatni o'zi mukammal o'rganishga kirishadi. Roziy mashhur kimyogar bo'lib, kimyo faniga oid 26 ta asar yozgan, biroq, bizgacha ularning 4 tasigina yetib kelgan. Bular orasida «Kitob ul asror» ("Sirlar kitobi") va "Kitob sirr il asror" ("Sirlar siri kitobi") asarlari alohida o'rin tutadi. "Kitob ul asror"da o'rta asr Sharq kimyosi o'zining to'la ifodasini topgan. Roziyning bu asarlari uning nazariy jihatdan bir metallni ikkinchi metallga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishonganini ko'rsatadi. Garchi amaliy jihatdan uning nazariyasi utopik bo'lsada, oltin va kumush hosil qilish yo'lidagi urinishlari tufayli Roziy hozirgi kimyoni bir qancha yangi moddalar, asboblar va kimyoviy amallar bilan boyitdi. Roziyning tibbiyot va kimyo sohalariga oid asarlari o'rta asrlarda Sharq va G'arbda shu sohalarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Inson salomatligi va u bilan bog'liq fan sohasi - tabobat kishilik jamiyatining hamma davrlarida dolzarb va yuksak e'tiborga sazovor sohalardan biri bo'lib kelgan. Buning natijasi o'laroq jamiyat taraqqiyotining bugungi kuniga qadar bu sohada ulkan kashfiyotlar qilinib, peshqadam muolaja vosita va usullari yaratilgan. Hozirgi kunda shifokorlar ixtiyorida dori-darmonlar, diagnostika va davolash usullarining yig'indisi mutaqaaddim olimlarning ilmiy izlanishlari mahsulidan

FALSAFA

tashkil topganligi hammamizga ma'lum. Yoshi 30 atrofida bo'lgan ar-Roziy tabobat, kimyo va falsafa kabi fan sohalarida ilm izlab Bag'dodga keladi va tinmay izlanishi, ko'gina kitoblardan, ustozlaridan olgan ma'ruzalari orqali to'plagan ma'lumotlar orqali o'zini tabiblikda sinab ko'radi va insonlarni davolay boshlaydi. Tez orada xalq orasida tanilib, mashhur tabibga aylanadi. Insonlarni davolashdagi yuksak maxorati tufayli turli hukmdorlar ar-Roziyning o'z poytaxtlariga da'vat eta boshlaydilar. Shu tarika, u avvaliga Ray, keyinchalik esa, Bag'dodda "Adudiy" nomi bilan yuritilgan shifoxonani boshqaradi. "Islom ensiklopediyasi"da ta'kidlanishicha, ar-Roziy XVII asrga qadar tabobatdagi eng katta obro'ga erishgan olimlardan bo'lgan. Ibn Abu Usayb'aning "Uyun al-anba" asarida ar-Roziyning buyuk iqtidor sohibi ekanligidan da'olat beruvchi bir lavxa saqlangan. Unga ko'ra, Bag'dod hukmdori Adud ad-Davla olimdan "Adudiy shifoxonasini" kaysi joyga qurish mumkin deb so'raganida, ar-Roziy Bag'dodning har qaysi vohasiga bir bo'lakdan go'sht osib qo'yishni va go'sht qancha uzoq vaqt davomida buzilmay turishiga arab, o'sha joyda shifoxona qurishni maslahat bergan. Bu bilan alloma bahavo, kasallik tarqalishini oldini olishda yordam beradigan toza havoli joy deb ta'riflagan. Garchi allomaning ilmiy qiziqishlari doirasi juda keng bo'lsa ham, ar-Roziyning iste'dodi ko'proq falsafa, kimyo va tabobat sohalarida namoyon bo'lganligiga guvoh bo'lish mumkin. Ilmiy manbalarda keltirilishicha, Roziy tibbiyotga oid yuzga yaqin asar yozgan. Beruniyning yozishicha, u tabobat bo'yicha 56 ta, tabiiyot bo'yicha 33 ta, mantiq bo'yicha 7 ta, matematika va astronomiya bo'yicha 10 ta, falsafaga oid 17 ta, ilohiyot bo'yicha 14 ta, metafizikaga oid 6 ta, kimyo bo'yicha 22 ta va boshqa fanlar)ga oid 19 ta, jami 184 ta asar yozgan. Ulardan eng yirik va muhim asari «Kitob al-hoviy fi-t-tibb» («Tibga oid [barcha ma'lumotlarni] qamrovchi kitob») bo'lib, olim unga 15 yil umrini sarflagan bo'lsa ham tugatolmay vafot etgan. Unda muallif o'zidan oldingi tabiblarga kasalliklar va ularni davolash haqida nima ma'lum bo'lsa, barchasini keltiradi va ularga o'z tajribasida qo'lga kiritgan natijalarini qo'shib, bayon etadi. Bu asar XSH asrda lotin tiliga tarjima qilinadi va XV asrdan boshlab turli Yevropa shaharlarida qayta-qayta nashr etiladi. Olimning Sharq va G'arb mamlakatlarida keng shuhrat qozongan asarlaridan yana biri «Kitob at-tibb al-Mansuriy» («Mansurga bag'ishlangan tib kitobi») dir. O'n qismdan iborat bu asar ham lotin tilida ko'p marta nashr etilgan va to XVI asrga qadar Yevropa universitetlarida o'qitiladigan asosiy darsliklardan biri hisoblangan. Bulardan tashqari Roziy «Chechak va qizamiq haqida kitob», «Podshohlar tabobati», «Kasalliklar tarixi», «Bo'g'in kasalliklari haqida risola» va tibning boshqa turli masalalariga oid qator asarlar xam yaratgan. Uning «Chechak va qizamiq haqida kitob» asari tabobat tarixida alohida o'rin tutadi. U nda ilk bor chechak va qizamiq boshqa yuqumli kasalliklardan ajratib tavsiflanadi. Roziyning "Kasalliklar tarixi" ni esa o'rta asr tibb amaliyotidagi dastlabki klinik kuzatishlarning bayoni deb atash mumkin. Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziyning bizgacha 200 dan ortiq asari yetib kelgan. H. Hikmatullayev ar-Roziyning eng mashhur tibbiy asarlari haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:

1. "Katta to'plam" ("al-Havy"). Olimning mazmun jihatidan eng muhim va hajm jixatidan eng katta (30 jild) asari. Muallif unda qadimgi yunon tabobatidan to o'z zamonasigacha bo'lgan nazariy va amaliy tibbiy ma'lumotlarni to'plagan hamda o'zining Ray va Bag'dod shifoxonalarida amalga oshirgan tajriba va kuzatishlarini tavsiflagan. Asar o'z mohiyatiga ko'ra tabobat tarixidagi nodir qomus (ensiklopediya) lardan sanaladi.

2. "Yo'riqnoma" ("al-Murshid") asl nomi "Tabobat haqida haq so'zlar" bo'lgan bu asarda muallif Buqrotning "Fuso'l" kitobidagi qiyin joylarini izohlab beradi.

3. "Mansurga bag'ishlangan to'plam" ("al-Kunzi al- Manso'ri"), Risola tabobat, anatomiya, gigena, farmakologiya va sog'liqni saqlashning boshqa masalalariga bag'ishlangan 10 maqolani o'z ichiga olgan.

4. "Podshohlar tabobati" ("at-Tibb al-mulkiya"), Risola Tabariston xokimi Ali Vahsuzonga bag'ishlangan bo'lib, unda "boshdan oyoqqacha" bo'lgan kasalliklarni dorivor ovqatlar bilan davolash bayon etilgan.

5. "Tabib qolmagan kishiga" ("Man la yahduruhu at-tabib"), Kitobda tabib kelmagan holatda "boshdan oyoqqacha" bo'lgan kasalliklarni davolash haqida ko'rsatmalar berilgan.

6. "Sikanjubinning manfaatlari" ("Manafi' as-Sikan jubyn"), Sikanjubin nomli ichimlikning xosiyatlari, foydasi, iste'mol qilish vaqti va holatlari bayon etilgan.

7. "Murakkab dorilarga bag'ishlangan katta kitob" ("Al- Aqradin al kabiyr"). Turli kasalliklar va ularga nisbatan ishlatiladigan murakkab dorilar xaqida ma'lumotlar berilgan.

8. "Chechak va qizamiq haqida kitob" ("Kitab al-judari val-xasba"), Tabobat tarixida yuqumli kasalliklardan chechak va qizamiqqa bag'ishlangan ilk asar. Unda kuzatilgan tajribalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, asar muallifi esa, uning ilk kashfiyotchisi xisoblanadi. Risola U. I. Karimov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan va izohlangan. Ar-Roziyning kimyoga oid "Sirlarning siri" kitobi xam U.I.Karimov tomonidan tadqiq etilgan va nashrdan chiqarilgan. Asarning ahamiyati kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirish va reaksiyaga kirishgan moddalarni qaytadan avvalgi holiga qaytarish mumkinligi g'oyalari bilan belgilanadi.

O'zFA Sharqshunoslik institutida Roziy tibbiy asarlaridan 8 tasining bir necha qo'lyozma nusxalari saqlanmoqda. Shulardan faqat «Bur assoa» («Bir zumda tuzatish») va «Kasalliklar tarixi»gina o'rganilgan bo'lib, qolgan asarlari esa o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Nashrga tayyorlanayotgan «Risola fi vaj' al-mafosil» («Bo'g'in kasalliklari haqida risola») ham mazkur qo'lyozmalardan biri bo'lib, shu vaqtga qadar o'rganilmagan edi. Bu asar bizgacha juda oz nusxalarda yetib kelgan. Uning XVII va XIX asrga mansub ikkita qo'lyozmasi Tehrondagi Malik kutubxonasida va yana bir nusxasi Aleppoda (Suriya) saqlanadi. O'rta asrlarda lotin tiliga xam tarjima qilingan. Risolaning O'zR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan nusxasi 1717-yilda Yusuf ibn Shayx Fath Muhammad ismli ko'chiruvchi tomonidan 1305-yil Tabrizda Muhammad ibn Yusuf ibn Muhammad as-Sadid qo'li bilan kitobat qilingan qo'lyozmadan nasta'liq xatida ko'chirilgan, hajmi 41 varaq. Qo'lingizdagi kitobcha ana shu nusxa asosida tayyorlandi Risolaning kirish qismida aytilishicha, uni Roziy Safforiylar sulolasining vakili, Seiston (Eron) amiri Amr ibn YA'qub ibn Muhammad ibn Amrga (912-913) bag'ishlab yozgan. Shundan keyin asarning fihristi, ya'ni boblarining (risolada fasl) nomi keltirilgan. Risola 22 fasldan iborat bo'lib, ularda bo'g'in kasalliklariga tegishli bo'lgan nazariy masalalar hamda muolaja vosita va tadbirlari o'rin olgan. Shuni aytish joizki, risolada nazariy masalalarga ko'proq o'rin berilgan. Ular faqat kasallikning kelib chiqish sabablari va belgil zri bo'lib qolmay, balki to'rt xilt - qon, balg'am, safro va savdoning inson tanasida paydo bo'lishi, ovqat hazmida ishtirok etuvchi a'zolarining tuzchilishi (me'da, jigar, o't qopi, taloq, ichaklar, buyrak, qovuq), qon olinadigan tomirlarning qisqacha ta'rifini ham qamrab olgan. Shu jihatdan bu risola Roziyning «Kitob al-hoviy» asarining bo'g'in kasalliklari bayon qilingan XI kitobidan farq qiladi. Biolog olim Baxtiyor Rasulov emlashga oid dastlabki amaliyotlar sharqda, mashhur tib olimi Abubakr ar-Roziy tomonidan amalga oshirilgani haqidagi ma'lumotlarni keng ommaga ma'lum qilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziy o'rta asrning yirik qomusiy olimlaridan biri, Sharq tabobatining Ibn Sinoga qadar o'tgan eng yirik namoyandasidir. O'z ilmiy izlanishlari diapazonining chuqurligi va kengligi bo'yicha ar-Roziy mumtoz o'rta asr ilm-fani, falsafasidagi yirik mutafakkir, qomusiy olimlardan biri hisoblanadi. Bugungi kun tibbiyotida uning turli kasalliklarga bag'ishlangan asarlari katta ahamiyatga ega, falsafiy asarlarida esa inson, uning mohiyati, tabiati, hayotiy qadriyatlar, ma'naviy tiklanish masalalari yoritilib, o'z qimmatini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Бакр ар-Розий. Чечак ва қизамуқ ҳақида китоб. Арабчадан У.Каримов таржимаси. / Абу Бакр ар-Розий. Касалликлар тарихи китобида. Т, Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.
2. Китоб ал-ҳовий фи-т-тибб ли Абу Бакр Муҳаммад бин Закариё ар-Розий . Жузь 1-23 Ҳайдаробод. 1955-1977 (араб тилида)
3. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. Медицина. Составители: Х.Хикматулласв, С.У.Каримова. Т. Изд. Народного наследия и м. Абдуллы Кадыри, 2000. 302-с
4. Усманов Ж. Б. Арузийнинг "Мажмаъ ан-наводир" асарида Закариё ар Розийга муносабат //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 765-772.
5. Юлдашева Л. С., Шониёзов Ш. С. Абу Бакр ар-Розийнинг илм сарчашмаси // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 68-72.
6. Ҳикматуллаев Ҳ. Абу Бакр Розий ва унинг шоғирди ёзиб қолдирган касадликлар тарихи. Кириш, таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар. Т , Фан, 1974.
7. Ruska J. Al-Biruni als Quelle für das Leben und Schriften al-Razis. S.26-50.
8. Sezgin F. Geschichte des Arabischen Schrrfttum s. Leiden. E. J. Brill, 1970 B ill, S. 288.